

TOPISHMOQLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI, MAVZUIY GURUHLASH, TIPOLOGIK TAHLIL, TEZ AYTISHLARNING XUSUSIYATLARI

Usmonova Nilufar Suvon qizi
O'zbekiston Davlat Jahon tillar Universiteti
Lingvistika fransuz tili fakulteti
II bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada topishmoqlarning leksik-semantik xususiyatlari, mavzuiy guruhlash, tipologik tahlil, tez aytishlarning xususiyatlari haqida soʻz yuritilgan. Tez aytish va topishmoqlar nutq oʻstirish uchun katta xizmat qiladi. Topishmoq va tez aytishlar insonlar aqlini peshlaydi, lekin ular badiiy shakl va mazmunda insonlar eʼtiboriga havola etilganda, yosh avlodlarni maʼnaviy jihatdan tarbiyalaydi.

Kalit soʻzlar: topishmoq, leksik-semantik xususiyatlar, tez aytish, tilshunoslik, fransuz tili, chet tili, lugʻat, leksikologiya.

Abstract. This article talks about the lexical-semantic features of riddles, thematic grouping, typological analysis, features of quick sayings. Fast sayings and riddles are of great service to develop speech. Riddles and quick sayings stimulate people's minds, but when they are brought to people's attention in artistic form and content, they educate young generations spiritually.

Key words: riddle, lexical-semantic features, fast speaking, linguistics, French language, foreign language, dictionary, lexicology.

Абстракт. В данной статье говорится о лексико-семантических особенностях загадок, тематической группировке, типологическом анализе, особенностях скороговорок. Большую помощь в развитии речи оказывают скороговорки и загадки. Загадки и скороговорки возбуждают умы людей, но когда они доводятся до сведения людей в художественной форме и содержании, они духовно воспитывают подрастающее поколение.

Ключевые слова: загадка, лексико-семантические признаки, скороговорка, языкознание, французский язык, иностранный язык, словарь, лексикология.

Tilshunos olimlarimizning olib borgan kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan ilmiy ishlar biz uchun boy va tunganmas xazinadir. Leksik sathimizda shunday soʻzlar borki, ular xalqimizga xos boʻlgan milliy madaniyatni, oʻziga xos mentalitetni aks ettiradi. Har qanday til oʻz jozibasini, eng avvalo, xalq ogʻzaki ijodida namoyon qiladi.

Oʻzbek topishmoqlarining til xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan bir qator ishlarda topishmoqlarning ayrim sintaktik xususiyatlari, nominativ aspekti, ularning leksik-semantik hamda sintaktik-semantik tomonlari oʻrganildi.

Topishmoqlar topilishi zarur boʻlgan narsa va hodisalarning muhim belgilarini ajratish asosiga tuziladi. Topilishi zarur boʻlgan narsa va hodisalarning nomi yashirilgani holda, uning muhim belgilari topishmoqning shakliy

strukturasida o'z ifodasini topadi. Natijada topishmoq ikki qatordagi mazmuniy tuzilishga ega bo'ladi. Birinchi qatorda shakliy tuzilish birliklari ma'nosidan kelib chiqadigan yuza ma'no, ikkinchi qatorda esa shakliy tuzilish birliklari ostida ifodalanayotgan va tinglovchining til ko'nikmasi asosida anglashiladigan tagma'nodir.

Shuning uchun topishmoqlarning mazmuniy tuzilishi, unda topilayotgan narsa va hodisaning integral va differensial belgilarini o'rganish ona tili darslarida katta ahamiyatga ega. Bu esa tanlangan mavzuning hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Topishmoqlar dunyo xalqlari folkloridagi eng qadimiy kichik janrlardan biri hisoblanadi. Bu o'zbek topishmoqlariga ham xos xususiyatdir. Biroq "kichik" atamasini nisbiy ma'noda qabul qilish zarur. Zero, xalq og'zaki ijodida shunday topishmoqlar borki, ularning mazmunini butun boshli ertak yoxud dostonga teng deb qarashimiz mumkin.

Topishmoqlarimiz borasida qator izlanishlar mavjud. O'zbek topishmoqlarining tadqiqi olimaning bu fikrlarini to'la tasdiqlaydi.

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi. Topishmoqda yashirilgan narsalarning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini e'tibor bilan o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

O'ziga xos tarbiya vositasi bo'lgan topishmoqlar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrlidir. Bilamizki, topishmoq inson fantaziyasi va ichki kechinmalari mahsuli sifatida dunyoga keladi. E'tiborli jihati, har doim ularda insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo'ylik, halollik tuyg'ulari ustuvor bo'ladi va har bir topishmoq yaxshilikning yomonlik ustidan qilgan g'alabasi bilan tugaydi. «...Shunday qilib ular murod-maqсадiga yetibdi» degan iboraning deyarli hamma topishmoq yakunida uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, topishmoqlar bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga ongli munosabatini shakllantirar ekan. Bola topishmoq orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib qoladi. Va bola voyaga yetganidan keyin ezgu ishlarga odatlanadi.

Ma'lumki, topishmoqni qiziqarli va maromiga yetkazib aytish va shu orqali bolaning e'tiborini jalb qilish ham bir san'at. Qolaversa, xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lmish topishmoqlar faqat tarbiya vositasi emas, balki ota-ona va farzandni ruhan yaqinlashtiruvchi ko'prik hamdir. Shuning uchun ham mutaxassislar ota-onalarga farzandlariga ko'proq topishmoq aytib berishni

ta'kidlashadi. Zero, bir narsani unutmaslik lozim, topishmoqlar hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan bo'lsa-da, ularda tabiiy ravishda hayot haqiqati aks etadi. Qiziqarli syujet bilan boyitilgan bu hikoyalar bolaning ongli ravishda hayotni anglashiga yordam beradi.

Dunyo xalq og'zaki ijodini kuzatadigan bo'lsak, ular orasida farqlardan ko'ra, o'xshashliklar ko'proq ekanligiga amin bo'lamiz. Buning sababi shuki, insonlar qaysi millat vakillari bo'lishidan qat'i nazar ularning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibori bir xil. Shuning bilan birga, har bir millat avlod-ajdodlari tafakkurida dastlab mifologik tasavvurlar ustunlik qilgan va o'sha davrlarda qadriyatlar, orzu-istaklar deyarli bir xillik kasb etgan. Topishmoqlar turli tillarda, turli urug' va qabilalarda turlicha nomlar bilan atalgan. Masalan, o'zimizning respublikamiz miqyosida oladigan bo'lsak, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlarida topishmoq – matal deb nomlansa, Buxoro atrofida ayrim qishloqlarda ushuq, Xorazmda – varsaki, Toshkent shahri va uning atrofida – cho'pchak deyiladi.

O'zbek milliy topishmoqlarining aksariyati «biror narsani shakli va xarakterini belgilash», bilan boshlanadi, eng asosiy voqealar «rangi, tusi, ta'mi»dan keyingi vaziyatga to'g'ri keladi. «beriladigan narsani nima ekan?» degan savolga topishmoq yakunida albatta «u narsa uchun to'liq ma'lumot» tarzida javob olinadi.

Bizning millatimizda kun botgach, bolaga topishmoq aytib berish o'ziga xos an'anaga aylangan. Va bu an'ana asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Chunki topishmoq bolaning aqliy salohiyatini, topqirligini o'stirish bilan birga, uning tunni tinch va osuda o'tkazishiga ham xizmat qilgan.

Bir so'z bilan aytganda, topishmoqlar yosh avlodning sog'lom va barkamol voyaga yetishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa ota-onaga jahon va o'zbek xalq topishmoqlari jamlangan kitoblar yaqindan ko'mak beradi. Farzand o'stirayotgan har bir ota-onaga ana shunday topishmoq kitoblar hamroh bo'lsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

Topishmoqlarda biror bir jism (harakat yoki holat) ikkinchi bir jismga majoziy qiyoslanib, “bu nima”, degan savol qo'yiladi va yakunida uning javobi beriladi. Bu janrning zaruriy sharti, muhim spetsifik xususiyati, o'zgarmas qonuniyati hisoblanadi. Misol:

Qator, qator qora nor,

U ne bo'ldi bolqanto'z?

Uy ortida qo'sh terak,

U ne bo'ldi bolqanto'z.[4] (Soch o'rimi).

Hayotni o'ziga xos badiiy idrok etish shakli bo'lgan topishmoq o'zbek folklorining ommaviy janrlaridan biridir. Inson va uni o'rab turgan olam, topishmoqlarda ko'chimlar, o'xshatishlar, taqqoslashlar. Qiyoslar, solishtirishlar, savollar vositasida o'ziga xos poetik shaklda aks etadi. Bu jihati bilan u insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida favqulodda hodisa bo'lib, unda obrazli zuhur etgan hayot parchasi topishmoqning javoblari orqali reallashadi. Janrning poetik tabiatiga xos bo'lgan bunday umumiy xususiyat barcha xalqlar topishmoqlariga xos

xususiyatdir. Demak, u - xalqaro janr. SHu bilan birga har bir xalqning topishmog'i o'sha xalq hayot tarzining ifodasi sifatida o'ziga xos, original, jozibali va benazirdir.

Bilim – inson faoliyati ko'rinishlaridan biri hisoblanmish bilish jarayonining mahsuli. Bilish esa voqelikning inson ongida in'ikos etishi, shu asosda obyektlarning xossalari, belgi va mohiyatini ifoda etadigan tushunchalar, g'oyalarni ishlab chiqarish jarayonidir. Aqliy salohiyat boyib borishida til tizimi obrazli qurilishida so'z obrazining kaliti deb e'tirof etilayotgan topishmoq, jumboqlarning roli beqiyosdir.

Topishmoq-ssenariy yaratilish jarayonida avval obyekt tanlanadi, shu obyektga mos metaforik qiyoslar natijasida topishmoq tuziladi, yaratiladi. Topishmoq topuvchidan metaforik jumboqlangan obyekt narsa, tabiat hodisalari, biror voqelikni nomini aytib berish so'raladi.

Tez aytish — o'zbek xalq og'zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo'lgan qofiyadosh so'zlardan tuzilgan jumlar qo'llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so'zlar ritm, urg'ular bilan tez aytiladi. Mas., Besh mis barkash, besh mis barkashning ichida besh ming mis barkash. Tez aytishda har bir tovush o'z o'rnida to'g'ri, ravon talaffuz etilishi shart. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon (kishi) yengilgan hisoblanadi. O'tmishda katta yoshdagi odamlar ham o'tirishlarda, to'ylarda tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan, bolalar repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalarning fikrlash Tipologik qobiliyatini, so'z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo'lishiga xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodi turlaridan biri bo'lmish tez aytish ayrim nutq tovushlarining ko'p qaytarilishi yoki tovushlarning so'z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. Ayniqsa, bu iboralar tez aytilayotgan paytda, aytuvchi bu murakkab tovushlarni talaffuz qila olmasdan adashib ketishi tinglovchilarning beozor kulgusiga sabab bo'ladi. [O'zbek](#) tilida bu iboralarning tez aytish deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan.

Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darsliklarda ham keng qo'llanilgan. Topishmoqlar bolalar shoirlari tomonidan ham yaratilib kelinmoqda. Bunday topishmoqlar sho'x, qiziqarli bo'ladi.

Tez aytishlar ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan, o'qish sur'atini oshiradigan janr hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o'quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan, ko'proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan topishmoq, latifa va tez aytishlar tanlab kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Topishmoq, latifa va tez aytishlarni o'rganish boshlang'ich sinflarda dastlab har bir darsda amalga oshirilib boriladi. Alohida dars sifatida o'rganishda esa o'qituvchilar turli usullardan foydalanishlari mumkin.

Tipologik [guruhlash](#) yordamida o'rganilayotgan predmetning turli xildagi birliklari sifat [jihatdan bir xil guruhlarga](#), bir xil tiplarga ajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, topishmoqlar struktural, ifoda usuli, mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zaro o'xshash va farqli jihatlariga ega. Ulardagi o'xshashlik har ikkalasi ham mifolik tasavvur mahsuli ekanligini ko'rsatadi. Bu tasavvurlar ajdodlarimizning qadim dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lib, tarixiy taraqqiyot jarayonida ular bilan bog'liq tushunchalar ham o'zgarib borgan. Topishmoq motivida aks etgan metafora va ramzlar xalq og'zaki ijodi badiiyatini kuchaytirib, estetik ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida quyidagi xulosalarni aytishni lozim topdik: har bir fanda bo'lganidek, jahon folklorshunosligining ham o'z tadqiq metodlari bor. Ularni mifologik, antropologik, tarixiy, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy kabi maktab vakillari ishlab chiqqanlar. Bu maktab vakillari ba'zan bir-birlarining qarashlarini to'la inkor qilish darajasigacha yetgan bo'lsalar-da, ular kashf etgan metodlar bir-birini to'ldirib, folklor tarixi, poetikasi, ahamiyati haqidagi ulkan ishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Topishmoq tarixiy asoslari ibtidoiy davrlar bilan bog'liq jahon folkloriga xos janr bo'lgani uchun boshqa turlar ular o'rtasida genetik aloqadorlik, umumiy va farqli jihatlar bo'lishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zarifov H. Topishmoqlar // O'zbek folklori: xrestomatiya. – Toshkent, 1939;
2. O'zbek topishmoqlari. Uzbekskiy zagadki / Tuzuvchi, tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi M.Abdurahimov. – Toshkent: O'qituvchi, 1991;
3. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1974;
4. Abdullayev J.X. O'zbek topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 1993;
5. Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va difrensemalar munosabati (O'zbek topishmoqlari misolida). Filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2007;
6. Saparniyozova M. O'zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2005;
7. Qobuljonova G. Metaforalarning sistemaviy-lisoniy talqini (O'zbek xalq topishmoqlari misolida). Filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2006;
8. Jo'rayeva M. Topishmoq va marosim // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2009. -№2. – B.19 – 24.
9. Topishmoqlar. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. – Toshkent: Adabiyot va sa'nat, 1981;
10. Husainova Z. Topishmoqli ertaklar //O'zbek folklori ocherklari. T.2. – Toshkent: Fan, 1989. – B.102 – 129.

11. Husainova Z. So‘ngso‘z // Topishmoqlar. Ko‘p tomlik. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1981. – B.337 – 338.
12. Ачилов, Н. К., & Джумаева, Н. И. (2022, May). ВОПРОС ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ЭПИЧЕСКОМ ИСПОЛНЕНИИ И ЕЕ ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ. In Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г. (p. 103). Litres.
13. Achilov, N. (2022). EPIC KNOWLEDGE DECLINE AND FACTORS OF THE EMERGENCE OF FAKE EPOS. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 192-202.
14. Achilov, N. K. (2021). ЕДИНСТВО ЭПИЧЕСКИХ СЮЖЕТОВ И ВОПРОСЫ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ТРАКТОВКИ. Theoretical & Applied Science, (4), 125-130.
15. Achilov, N. K. (2022). The image of a historical person and its epical interpretation. Open Access Repository, 8(05), 126-132.
16. Buriboyevna, M. A. (2022). METHODOLOGY OF LEARNING THE SPEECH OF STUDENTS WITH SPECIAL NEEDS IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 147-151.
17. Makhsadovich, Z. S. (2022). GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF COTTON DEPENDING ON POTASSIUM NUTRITION IN CONDITIONS OF SOILS OF LOWINCOME EXCHANGE POTASSIUM.
18. Maxsadovich, J. S. (2021). INFLUENCE OF LOCAL POTASSIUM FERTILIZER ON GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF COTTON VARIETIES" BUKHARA-102" AND" OMAD".
19. Khamidovna, P. O. (2023). Features of the Use of Modern Didactic Tools in Technical Higher Educational Institutions. Telematique, 7630-7634.
20. Khamidovna, P. O., & Khabibakhan, J. (2020). FACTORS AND TOOLS FOR THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION AMONG HIGHER EDUCATION STUDENTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
21. Пўлатова, О. Х. (2022). КАСБИЙ ФАОЛИЯТИДА МУЛОҚОТНИНГ РОЛИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 190-195.
22. Khamidovna, P. O. (2022). Pedagogical Mechanisms for the Development of a Culture of Communication Between Students of Technical Universities. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 29-33.
23. Aminjanovna, R. N. (2022). EMOTIONAL STATES OF THE PERSON. Conferencea, 190-192.
24. Aminjonovna, R. N. (2022). О ‘SMIRLIK DAVRIDA EMOTSIONAL HOLATLAR TURLARI. World scientific research journal, 2(1), 105-109.

25. kizi Yunusova, H. R., & Ahmedova, M. A. (2022). THE CASE OF MULTIPLE AUXILIARY VERBS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *International Academic Research Journal Impact Factor 7.4*, 1(5), 5-8.
26. Khadimatovna, A. M. (2022). Psycholinguistic Features Of Slang Vocabulary In The National Language. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 205-208.
27. Urazalieva, M. (2022). THE ROLE OF JARGONS IN THE WORLD OF BUSINESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 619-624.
28. Ахмедова, М. Х. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТААЛЛУҚЛИ ЖАРГОНЛАРНИНГ ПСИХОЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. *SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(3), 85-89.
29. Khodimatovna, A. M. (2021). Psycholinguistic features not literary words. *Linguistics and Culture Review*, 5(S2), 1115-1121.
30. Ахмедова, М. Х. (2021). ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГ НУТҚИ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1209-1213.
31. Rustamovna, P. M. (2022, December). Infectious Diseases of the Nervous System In Children And Its Complications. In *Conference Zone* (pp. 168-174).
32. Po'latxo'jayeva, M. R. Defektologiyaning klinik asoslari. O 'quv qo 'llanma. T., TDPU–2013.
33. Po'Latkhodjaeva, M. R. (2022). Effective Ways of Rehabilitation Work with Children with Cochlear Implants. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 9, 479-481.
34. Пўлатхўжаева, М. Р. (2021). БОЛАЛИК ДАВРИДА УЧРАЙДИГАН БОШ МИЯ ЖАРОҲАТЛАРИ ВА УНИНГ АСОРАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1124-1128.
35. Abdurakhmanovna, M. D. (2022). SPECIFIC FEATURES OF FINE MOTOR SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 135-139.
36. Musayeva, D. A. (2019). Family and School Interaction in Educating Children with Hearing Impairment. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
37. Khamidovna, P. O. (2023). Features of the Use of Modern Didactic Tools in Technical Higher Educational Institutions. *Telematique*, 7630-7634.
38. Khamidovna P. O. The mechanism of developing a culture of communication in students in the educational process //JCR. – 2020. – Т. 7. – №. 12. – С. 3096-3103.
39. Xaboxunova, R. (2021). QO'QON ADABIY MUHITI IJODKORLARI HAQIDA. QO'QON ADABIY MUHITI AZIZ QAYUMOV TALQINIDA. *Scienceweb academic papers collection*.

40. Khabokhunova, R. (2014). ABOUT STUDYING HISTORY OF THE KUKAN ENVIRONMENT. *Paradigmata poznani*, (2), 85-89.
41. Хабохунова, Р. Ш. (2013). О разновидности мушаира (поэтическое состязание), свойственной Кокандской литературной среде. *Познание стран мира: история, культура, достижения*, (2), 78-81.
42. XABAXUNOVA, R. ÖZBEK KLASİK EDEBİYATININ ARAŞTIRILMASINDA HERMENEUTİK TEMELLERİ ÜZERİNE BİR YAKLAŞIM. *Folklor Akademi Dergisi*, 2(3), 556-562.
43. Elmurodov, S., Tajibaev, J., Matniyazov, Z., Ikromova, M., & Meliboeva, G. (2022). Methods of Correct Placement of Counters and Information Boards in Historical Monuments. *Journal of Architectural Design*, 13, 43-49.
44. Murodovna, I. M. (2022). EXPERIENCE OF WORLD COUNTRIES IN ANALYSIS AND SOLUTIONS OF THE PROBLEMS IN THE DOMESTIC TERRITORIES OF MICRO-COUNTRIES. *Open Access Repository*, 8(12), 675-683.
45. Murodovna, I. M. (2022). O'ZBEKISTON HUDUDIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK KOMPLEKSLARNING O'RNİ. *Conferencea*, 23-25.
46. Эралиев, А. А. (2022). РОЛЬ ЖЕНЩИН-ДЕВУШЕК В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 1024-1030.
47. Эралиев, А. (2022). Актуальные вопросы при организация современного производства на промышленных предприятиях. *Scientific Collection «InterConf»*, (128), 34-39.
48. Эралиев, А. (2022). ПОВЫШЕНИЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ НАСЕЛЕНИЯ В ПОСТПАНДЕМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ ЗА СЧЁТ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. *InterConf*.
49. Эралиев, А. А. (2022). ПОВЫШЕНИЕ РОЛИ МОТИВИРУЮЩИХ ФАКТОРОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ВЫПОЛНЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ. In *Colloquium-journal* (No. 5 (128), pp. 17-19). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості.
50. Эралиев, А. А. (2022). Значение качества продукции для строительных организаций и вопросы его повышения. *Процветание науки*, (2 (8)), 3-10.
51. Эралиев, А. А. (2021). РОЛЬ РУКОВОДИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ КУЛЬТУРЫ ПРЕДПРИЯТИЙ. *Вестник науки и образования*, (7-1 (110)), 47-50.
52. Эрматов, А. А., & Эралиев, А. А. (2021). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ЗА СЧЕТ ВОВЛЕЧЕНИЯ СОТРУДНИКОВ В УПРАВЛЕНИЕ ПРЕДПРИЯТИЯМИ. *Вестник науки и образования*, (12-1 (115)), 72-75.

53. Эралиев, А. А. (2021). ЗНАЧЕНИЕ СТРУКТУРЫ УПРАВЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. Научный журнал, (3 (58)), 47-49.
54. Shamshidinovich, K. J. (2022). Interaction Of Distance Education Processes to General Secondary Schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 8, 72-75.
55. Kazimov, J. S. (2020). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF EDUCATIONAL PROCESSES IN MODERN SCHOOLS ON A SCIENTIFIC BASIS. In *Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives* (pp. 14-19).
56. Kazimov, J. S. (2020). CONTENTS OF THE PROCESS OF PREPARATION AND TRAINING OF TEACHERS OF GENERAL EDUCAT
57. Shamahiddinovich, K. J. (2019). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF INNOVATION PROCESSES IN GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(3).
58. Казимов, Ж. Ш. (2019). Современный подход к качеству и эффективности учебно-воспитательных процессов в общеобразовательных школах. *Евразийское Научное Объединение*, (2-4), 230-232.
59. Казимов, Ж. Ш. (2019). Перспектива каждого общества определяется его неотъемлемой частью и тем, насколько жизненно важна система образования. In *Научные тенденции: Педагогика и психология* (pp. 33-35).
60. Охунув, И. И., Левкович, М. Г., Абдуллаев, Н. Д., Хужаев, В. У., & Арипова, С. Ф. (2011). Алкалоиды *Crambe kotschyana* флоры Узбекистана. *Химия природ. соедин*, (3), 431-432.
61. Okhunov, I. I., Bobakulov, K. M., Aripova, S. F., Abdullaev, N. D., & Khuzhaev, V. U. (2012). Component composition of *Crambe orientalis*. *Chemistry of Natural Compounds*, 47(6), 1018-1019.
62. Tseomashko, N. E., Terent'eva, E. O., Kodirova, D. B., Okhunov, I. I., Aripova, S. F., Khashimova, Z. S., & Azimova, S. S. (2013). Synthesis of convoline and cytotoxic activity of alkaloids of the genus *Convolvulus* and their derivatives. *Chemistry of Natural Compounds*, 48(6), 1039-1041.
63. Okhunov, I. I., Aripova, S. F., Bobakulov, K. M., Abdullaev, N. D., & Khuzhaev, V. U. (2011). Alkaloids and other low-molecular-weight metabolites from *Crambe kotschyana*. *Chemistry of Natural Compounds*, 47(4), 671-673.
64. Okhunov, I. I., Mirzaev, Y. R., Bobakulov, K. M., Abdullaev, N. D., & Aripova, S. F. (2016). Constituents of *Convolvulus fruticosus* and Pharmacological Activity of the Main Alkaloid Cuscohygrine. *Chemistry of Natural Compounds*, 52(3), 558-559.

65. Okhunov, I. I., Levkovich, M. G., & Aripova, S. F. (2013). Crambain, a new alkaloid from plants of the genus *Crambe*. *Chemistry of Natural Compounds*, 49(2), 320-322.
66. Okhunov, I. I., Levkovich, M. G., Turgunov, K. K., & Aripova, S. F. (2016). 5-hydroxy-4, 5-Dihydrooxazole-2-Thiol and Cyclic Sulfur from *Crambe kotschyana*. *Chemistry of Natural Compounds*, 52(1), 186-187.
67. Berdiyorova, G. (2022, September). " FINE ART" IS A CREATIVE PRODUCT FOR CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 124-127).
68. Ayupova, M. Y., & Amirsaidova, S. M. (2018). Meaning of Speech in Mental Development of Child. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
69. Abidova, N. Z. (2022, December). CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL ACTIVITY DEVELOPMENT IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 665-671).
70. Abidova, N. Z., & Mansurova, D. (2022, December). PROBLEMS OF RELATIONSHIP OF THE VALUES OF TEACHERS AND THEIR READINESS FOR INCLUSIVE EDUCATION. In *Conference Zone* (pp. 672-677).
71. Abidova, N. (2022). Problems of Preparing Future Defecttologists to Work in the Conditions of Inclusive Education. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2505-2511.
72. Abidova, N. Z., & Shukuralieva, N. S. (2022). CURRENT STATUS OF STUDYING THE PROBLEM OF COMMUNICATION IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 35-40.
73. Abidova, N. Z., & Кахарова, М. М. (2022). DEVELOPMENT OF SOUND PRONUNCIATION OF SPEECH IN CHILDREN WITH EXPRESSIVE ALIA. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 4(11), 28-34.
74. Абидова, Н. З., & Утбасарова, У. М. (2022). МАКТАБ ЁШИДАГИ ДИЗАРТРИЯ НУТҚ НУҚСОНЛИ ЎҚУВЧИЛАР БИЛАН ЛОГОПЕДИК ИШНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА НУТҚИНИ ДАВОЛОВЧИ ФОНЕТИК РИТМЛАШ ОРҚАЛИ ҚАЙТА ҚУРИШ. *PEDAGOGS jurnali*, 5(1), 78-84.